



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ORNITONIMLAR – DUNYO TILSHUNOSLIGINING O`RGANISH

OBYEKTI SIFATIDA

Oromova Munisa Jamshid qizi

Buxoro davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada dunyo tilshunoslida ornitonimlarning o`rganilishi, ornitologiya terminining paydo bo`lishi, shu bilan birga, dunyo tilshunoslida, xususan, rus va ingliz tillarida ornitonimlarning o`rganilishi masalasiga atroflicha yondashilgan.

Kalit so`zlar: ornitonim, ornitologiya, semantik maydon, metafora, frazeologiya.

Ornitologiya (yun. ornithos — qush va logiya) — umurtqalilar zoologiyasining qushlarni o`rganadigan bo`limi. Ornitologiya qushlarning ekologiyasi, biologiyasi, sistematikasi, morfologiyasi, fiziologiyasi, biogeografiyasi, evolutsiyasi va amaliy ahamiyatini o`rganib, bu ma'lumotlardan umum biologik va insoniyatning amaliy faoliyati bilan bog`liq muammolarni hal etishda foydalanadi. "Ornitonim" terminini fanga 16-asr oxirida italyan naturalisti U. Aldrovandi kiritgan. Qushlarga bag`ishlangan birinchi asar "Hayvonlar tarixi"ni Aristotel (miloddan avvalgi 384—322 yillar) yozgan. U 170 tur qushning tuzilishi va hayotini tasvirlab bergen. O`rta asrlarda lochinlar yordamida ov qilishga qiziqish ancha kuchayganligi tufayli germaniyalik F. Gogenshtaufenning "Qushlar bilan ovalash san'a-ti haqida" asari dunyoga keldi. Asar qushlar to`g`risidagi bilimlarni birmuncha kengaytirdi. 16-asrdan boshlab qushlarning anatomik tuzilishi, biologik tasnifi, hayot tarziga oid ma'lumotlar to`planib boradi. Shved tabiatshunosi K. Linney qushlar sistematikasi va fenologiyasini o`rganishga asos soldi. 19-asrda ayrim hududlar faunasini o`rganish, qushlarning sistematikasi, evolyusiyasi va Yer yuzida tarqalish qonuniyatlarini o`rganish sohasidagi ishlar ornitologiyaning yanada rivojlanishiga olib keldi. 20-asrning birinchi yarmidan boshlab qushlarning ekologik va etologik xususi-yatlari, turlararo munosabatlari, migratsiyasi o`rgana boshlandi. 20-asrning birinchi yarmidan tadqiqotlarning yangi eksperimental va dalada ishlash metodlari ishlab chiqilishi tufayli ornitologiya sohasidagi tadqiqotlar biosfera va ekologiyaga oid muammolarni ilmiy nuqtai nazardan hal etishda boshqa fanlar orasida mustahkam o`rin egallaydi. Qushlarni o`rganish borasida xalqaro hamkorlikning



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

yo‘lga qo‘yilishi ornitonimlarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 1884-yilda ornitologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida Xalqaro ornitologlar komiteti tuzildi. Xalqaro, mamlakatlar va regionlar miqyosida konfesslar, konferensiyalar va seminarlar tashkil etila boshlandi. Hozirgi 200 dan ortiq ornigologik jurnallar qushlarning hayoti va tabiat muhofazasiga oid ma’luotlarni berib boradi Jumladan, jahon tilshunosligida, ayniqsa, rus tilshunosligida ornitonimlar va ularning o`ziga xosliklariga oid bir qator ishlar amalga oshirilgan. Bunda N.D. Pimenova 2002; Simakova 2004; V.V. Sibul 2007; M.V. Kutyeva 2009; N.Yu. Kostina 2012; T.N. Sivkova, Nguyen Thi Yen 2015; Vu Xan 2015; A.V. Moskalenko 2015; E.I. Zinovieva 2012 yil, 2016; S.V. Kostleva 2016; Lan Liying, T.N. Sivkova 2016; L.R. Sakaeva 2017; Beecher Omer 2018 va boshqalarning ishlari yaqqol ko`zga tashlanadi.

Rus tilshunosi L.F Moiseev “Rus tilida qush nomlari” (“Названия птиц в русском языке”) nomli tadqiqot ishida tabiatdagi qush nomlarining semantik xarakteristikasi ifodalash, rus ornitologiyasining shakllanish yo`llari, slavyan tillaridagi semaktik ma’no ifodalashdagi farqlar kabi masalalar o`rganilgan. Tadqiqotning birinchi bobida rus tilidagi ornitonimlarni sinonimik qatorlarga birlashtirish, sinonimlarning boshqa tillar va shevalardan o`zlashtirilishi, shu qatorda, qush nomlarning o`ziga xos xususiyatlariga ko`ra 25 ta sinonimik qatorga birlashtirilgan. Ikkinchi bobda adabiy til va shevalardagi qush nomlari o`rtasida o`zaro aloqalar tahlil qilingan. Uchinchchi bobda rus ornitologiyasidagi so`z yasalishi va sematikasini tizimli tashkil qilish tamoyillari o`rganilgan.

O.B Simakov ““Ornitonimlar” leksik- semantik guruhi (rus va fransuz tillari asosida)” (“Лексико-семантическая группа «Орнитонимы» (на материале русского и французского языков”) nomli tadqiqotida ornitonimlarning leksik- semantik va leksik-tematik guruhlari, hayvon va qush nomlarini lingvistik o’rganish, ornitonim, ornitonimiya, atamalar va nomlar, funksional ornitonimiyada stilistik registrlar, frazeologiya va uning chegaralari, qush nomlarining frazeologik birliklar tarkibida qo’llanishi, qushlarning inson hayotidagi o`rni, ornitonimlardan foydalanish sohalari, hind-yevropa tillari (rus va fransuz)dagi ornitonimlarning etimologiyasi o`rganilgan. Tadqiqotda rus va fransuz tilidagi ornitonimlar etimologiyasi quyidagicha tasniflangan: a) hind-yevropa tillari; b) umumiyl slavyan tillari; d) sharqiy slavyan tillari; e) rus tili; f) turk tili; g) g`arbiy yevropa tillari.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Bulardan tashqari, fransuz tilidagi ayrim ornitonimlarning arab, roman, german, ingliz tillaridan kirib kelgani haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, ishda ornitonimlarda polisemiya masalasiga alohida o'rinn berilib, ularning metafora, metanomiya, kishi ismi vazifasida qo'llanishi haqida ham to'xtalib o'tilgan. Umuman olganda, ushbu tadqiqotda olim tomonidan qush nomlarining nafaqat inson hayotida, balki ilm-fanning turli sohalari uchun alohida ahamiyati batafsil yoritilgan. Rus va xitoy olimlaridan Lan Liin va T.N Sivkovaning "Rus va xitoy tillaridagi ornitonim komponentli metaforalar:" nomli ishida hayvon va qushlar inson xarakterini ko'rsatuvchi eng keng tarqalgan metaforik misollardan biri bo'lib, xususan qushlarning tashqi ko'rinishi, xulq-atvori, odatlari, tovushlari bilan osongina solishtiriladi. Ammo, qushlar rus va xitoy xalqlari hayotida mavqe va roli jihatdan farq qilishi mumkinligi o'rganilgan.

E.I Safina "Tatar tilidagi qushlarning nomlari va ularning leksikografiyası" ("Названия птиц в татарском языке и их лексикографирование") nomzodlik ishida ornitonimlarning rus tilshunosligida, turkologiyada va tatar tilshunosligida o'rganilishi, tatar tilidagi qush nomlarining genetik va tarixiy qatlamlari: turkiy-mo'g'ul, tatar, arab-fors, rus, g'arbiy-yevropa tillaridan o'zlashganligi, tatar tilida qush nomlarining nomlanish usul va yo'llari (bevosita va bilvosita), tatar tilida ornitonimlarning yasalish usullari (affiksatsiya, o'zak qo'shish, so'z birikmalarining leksiklashuvi), tatar tilida qush nomlarining leksikografiyası kabi masalalar o'rganilgan.

Rus olimi M.V Kutevning "Rus va ispan tilidagi ornitonimlarning milliy-madaniy xususiyatlari" ("Национально-культурная специфика переносных значений орнитонимов в русском и испанском языках") nomli nomzodlik ishida rus va ispan tillaridagi ornitonimlarning milliy-madaniy xususiyatlari, ko'chma ma'nolarda qo'llanishi, shuningdek, ularning leksik va frazeologik birliklar tarkibida qo'llanishi va ma'nolari haqida to'xtalib o'tilgan. Tadqiqotda ikki tildagi ornitonimlarning variantlilik xususiyati haqida, shu bilan birga, ularning gazeta maqolalari, adabiy asarlar va nutqiy kontekstda semantik ma'nolarining aktuallashuvi masalasi ham batafsil lingvokulturologik aspektida tahlil qilingan. Olimaning fikricha, tildagi metaforik ornitonimlar xalqning milliy-madaniy dunyoqarashi mahsuli bo'lib, ular intralingvistik va ekstralinguistik omil asosida yuzaga keladi va ornitonimlarning ko'chma ma'nolari leksikografik jihatdan aks etish yoki etmasligini vaqt ko'rsatadi. Ornitonimlarning ko'chma ma'nolarining bir



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qismi doimiy odad tusiga kiradi, qolgan qismi esa yo yo`qolib ketadi, yoki muallif nutqi bilangina cheklanib qoladi. Shu bilan birga, vaqt o`tishi bilan muallif nutqidagi okkozional ma`nolar xalq tomonidan qo`llanila boshlanishi mumkin.

Nadja Weisshauptning “The challenge of dubbing bird names: shifts of meaning and translation strategies used in the German version of *The Big Year*” (2011) nomli tadqiqotida bir film doirasida qush nomlarini tarjima va dublyaj qilish bilan bog`liq strategiyalar o`rganilgan. Bu jarayonda tarjimashunoslik va ornitologiyaning integratsiyalashuviga va dublyaj vaqtida ilmiylikka rioya qilishga ham alohida e`tibor qaratilgan.

Mohd Nour Al-Salem Eman Awni Ali Imran Alrashdan “The Connotations of Bird Names in Arabic and English” nomli maqolasida arab va ingliz tillaridagi qush nomlarining konnotativ ma`nolari tadqiq qilingan. Bunda asosan, ornitonimlar asosida yuzaga keladigan umumiy va xususiy metaforalar o`rganilgan. Bilamizki, qushlar ko`pincha, insonga xos xususiyatlarni ifodalash uchun og`zaki va yozma nutqda o`ziga xos xarakterga ega. Shundan kelib chiqqan holda, ishda ikki tilda so`zlashuvchilar nutqida uchraydigan ornitonim asosli o`xshash va farqli metaforik birliklar tahlil qilingan. Tadqiqot lingvokulturalogik va kognitiv yondashuv asosida bajarilib, statistik ma`lumotlar ham ilova qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Моисеева Лилия Федоровна Названия птиц в русском языке. Киев. 1974
2. Симакова Ольга Борисовна .Лексико-семантическая группа «Орнитонимы» (на материале русского и французского языков) Орёл. 2004
3. Сафина, Эльвира Ирфатовна Названия птиц в татарском языке и их лексикографирование
4. Кутьева Марина Викторовна. Национально-культуя специфика переносных значений орнитонимов в русском и испанском языках Москва. 2009
5. Mohd Nour Al-Salem Eman Awni Ali Imran Alrashdan..The Connotations of Bird Names in Arabic and English.
6. Nadja Weisshaupt. The challenge of dubbing bird names: shifts of meaning and translation strategies used in the German version of *The Big Year*. 2011